**XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 21-aprel VII-07-42-2-36-K/25 Kogon tumani

## Kogon tuman mahalliy budjetining 2025 yilgi tasdiqlangan budjet parametrlariga kiritiladigan o’zgartirishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 143,148-moddalariga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq tuman hokimligining Kogon tuman mahalliy byudjetining ***2025 yilgi tasdiqlangan byudjet parametrlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi*** takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 143,148-moddalariga asosan ***2025 yilgi tasdiqlangan byudjet parametrlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi*** Kogon tuman Iqtisodioyt va moliya bo‘limi boshlig’i U.Zadaevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kogon tumani mahalliy byudjetining ***mahalliy byudjetning tasdiqlangan parametrlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish*** *1-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari kengashlari deputatlari mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda qo‘shimcha manbalar asosida shakllantiriladigan tadbirlarga tegishli mabalg‘alarni yo‘naltirish uchun “Ochiq byudjet” tizimi to‘g‘risida aholini xabardor qilish va ularning ushbu tadbirlarga faol ishtirokini ta’minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

4. Kogon tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i (U.Zadaev)ga:

mahalliy budjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash;

budjet xarajatlari rejasiga o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda hisobga olish, tegishli hududiy budjet mablag‘ oluvchilarning xarajatlar miqdoriga aniqlik kiritish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Zadaev zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

Kengash raisi



QAZOQOV OTABEK NODIROVICH

Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining
2025-yil 21-apreldagi
VII-07-42-2-36-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Kogon tumani mahalliy byudjetining 2025 yil tasdiqlangan parametrlariga hududiy mablag‘ taqsimlovchilar kesimida kiritilgan o‘zgartirishlar**

*1-ilova* — *mln.so'm*

| № | Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchining nomi | 2025 yil tasdiqlangan reja | 2025 yil aniqlangan reja | Byudjet barqarorligini ta’minlash hamda byudjet tashkilotlarining ish haqi va saqlash xarajatlari, kreditor qarzdorliklarini qoplash va maqbullashtirish bilan bog‘liq kiritilgan o‘zgarishlar | | | | | Maqbullashtirilgan xarajatlar hamda Byudjet barqarorligini ta’minlash, byudjet tashkilotlarining ish haqi xarajatlari, so‘roviga asosan davlat dasturlarini amalga oshirish va saqlash xarajatlari, kreditor qarzdorliklarini qoplash bilan bog‘liq kiritilgan o‘zgarishlar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | O‘zR respublika budjetidan ajratilgan mablag‘ hisobidan | Erkin qoldiq hisobidan | Viloyat budjetidan ajratilgan mablag‘ hisobidan | Ichki budjetidan kiritilgan o‘zgarish hisobidan | Zaxira jamg‘armasi (hokim farmoyishi) | |
| **Kogon tuman budjeti** | | **92,007.843** | **95,873.946** | **2,549.279** | **1,368.785** | **-51.961** | **0** | **0** | **-0** |
| **1** | Maktabgacha va maktab ta’lim sohasi | **19,432.271** | 21,151.800 | 2,519.529 | | | -800.000 | 9.600 | -809.600 |
| **2** | Sog‘liqni saqlash sohasi | **0.000** | 0.000 | | | | | | 0.000 |
| **3** | Madaniyat sohasi | **4,021.882** | 4,151.882 | | 10.000 | | 120.000 | 93.000 | 27.000 |
| **4** | Yoshlar siyosati va sport sohasi | **10,260.738** | 10,140.738 | | | | -120.000 | | -120.000 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **5** | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi | **17,967.661** | 19,045.175 | 29.750 | 297.764 | | 750.000 | | 750.000 |
| **6** | Qishloq xo‘jaligi sohasi | **2,531.650** | 2,512.885 | | | -68.765 | 50.000 | | 50.000 |
| **7** | Suv xo‘jaligi sohasi | **1,534.591** | 1,534.591 | | | | | | 0.000 |
| **8** | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasi | **1,895.000** | 1,895.000 | | | | | | 0.000 |
| **9** | Itisodiyot va moliya sohasi | **2,240.000** | 2,256.804 | | | 16.804 | | | 0.000 |
| **10** | Tuman soliq inspeksiyasi | **0.000** | 14.000 | | 14.000 | | | | 0.000 |
| **11** | Hokimiyat sohasi | **30,971.502** | 32,018.523 | | 1,047.021 | | | -102.600 | 102.600 |
| **12** | Xalq qabulxonasi va Axborot kutubxona markazi | **862.548** | 862.548 | | | | | | 0.000 |
| **13** | Xalk deputatlari Kengashi kotibiyati | **290.000** | 290.000 | | | | | | 0.000 |